DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-oje-05-03-15 Pages: 112-118

Oriental Journal of Education



GRAMMATICAL MEANS OF EXPRESSING THE MEANING OF ASSUMPTION IN TOPIK TEXTS AND THEIR USAGE

Sevinch Mirjamilova
Tashkent State University of Oriental Studies
2nd-year Master's Student, Higher School of Korean Studies
Tashkent, UZBEKISTAN
E-mail: mirjamilova.sevinch1403@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: TOPIK, grammar, assumption, Korean language, examination, linguistics.

Received: 26.04.25
Accepted: 28.04.25
Published: 01.05.25

Abstract: This article analyzes the grammatical devices used to express assumptions in the Korean language within the TOPIK exam. It examines grammatical constructions such as -ㄹ/을 것이다, -ㄴ/은/는 모양이다, -ㄴ/은/는 가 보다, -ㄹ/을 텐데, and -ㄴ/은/는 척하다, focusing on their usage and contextual application. Based on research findings, the article highlights their significance in expressing probable assumptions about events or situations and their role in the TOPIK exam through specific examples.

TOPIK MATNLARIDA TAXMIN MA'NOSINI IFODALOVCHI GRAMMATIK VOSITALAR VA ULARNING ISHLATILISH O'RNI

Sevinch Mirjamilova
Koreyashunoslik oliy maktabi 2- bosqich magistranti
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Toshkent, O'ZBEKISTON
E-mail: mirjamilova.sevinch1403@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: TOPIK, grammatika, taxmin, koreys tili, imtihon, tilshunoslik.

Annotatsiya. Ushbu maqolada TOPIK imtihonida koreys tilidagi taxmin ma'nosini ifodalovchi grammatik vositalar tahlil qilinadi. Maqolada grammatik qurilmalar, jumladan -ㄹ/을 것이다, -ㄴ/은/는 모양이다, -ㄴ/은/는 가 보다, -ㄹ/을 텐데 va -ㄴ/은/는 척하다 kabi shakllarning ishlatilish o'rni ko'rib chiqilib, tadqiqot natijalari asosida ushbu grammatik vositalarning voqealar yoki holatlar haqidagi ehtimoliy taxminlarni ifodalashdagi

ahamiyati va TOPIK imtihonidagi roli aniq misollar orqali yoritib beriladi.

ГРАММАТИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА ВЫРАЖЕНИЯ ЗНАЧЕНИЯ ПРЕДПОЛОЖЕНИЯ В ТЕКСТАХ TOPIK И ИХ УПОТРЕБЛЕНИЕ

Севинч Мирджамилова
Магистрантка 2-го курса Высшей школы корееведения
Ташкентский государственный университет востоковедения
Ташкент, УЗБЕКИСТАН
*E-mail: mirjamilova.sevinch1403@gmail.com *

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: TOPIK, грамматика, предположение, корейский язык, экзамен, лингвистика.

Аннотация. В данной статье анализируются грамматические средства выражения предположений в корейском языке на экзамене TOPIK. Рассматриваются грамматические конструкции, такие как -ㄹ/을 것이다, -ㄴ/은/는 모양이다, -ㄴ/은/는가 보다, -ㄹ/을 텐데 и -ㄴ/은/는 척하다, их использование и контекст применения. На основе результатов исследования подробно объясняется их значение в выражении вероятных предположений о событиях или ситуациях, а также их роль в экзамене TOPIK с конкретными примерами.

Kirish. TOPIK (Test of Proficiency in Korean) – Koreya hukumati tomonidan tashkil etilgan va butun dunyo bo‘ylab tan olinadigan koreys tili bilish darajasini baholovchi imtihondir. Ushbu imtihon o‘zbek talabalari uchun bir nechta muhim afzalliklarni taqdim etadi.

Birinchidan, ta’lim va grant dasturlarida ishtirok etish imkoniyati. Janubiy Koreya hukumati tomonidan ajratiladigan stipendiya dasturlariga ariza topshirishda TOPIK sertifikati talab etiladi.

Ikkinchidan, ishga joylashish va kasbiy imkoniyatlar. Koreyada faoliyat yuritayotgan xalqaro kompaniyalarda ishlash uchun kamida TOPIK 3 yoki 4-daraja talab qilinadi. Shuningdek, O‘zbekistonda ham koreys kompaniyalari soni ortib bormoqda, bu esa koreys tilini yaxshi biladigan mutaxassislarga talab ortishini anglatadi.

Uchinchidan, madaniy va akademik tadqiqotlar uchun muhim manba. Koreys tili va madaniyatini o‘rganish bilan shug‘ullanadigan tadqiqotchilar uchun koreys tilida erkin so‘zlashish va ilmiy maqolalarni tushunish katta ahamiyat kasb etadi. Hozirda O‘zbekistonda 10 dan ortiq universitetlarda koreys tili bo‘yicha ta’lim yo‘nalishlari mavjud. Shu sababli, TOPIK imtihoniga tayyorgarlik ko‘rish va uni muvaffaqiyatli topshirish o‘zbek talabalari uchun ta’lim, ish va ilmiy izlanishlar yo‘nalishida katta afzalliklar beradi.

Asosiy qism. TOPIK imtihonida grammatik qurilmalarning salmoqli o‘rni bor. Imtihonda aynan grammatik vositalarni to‘g‘ri qo‘llash yuqori natijaning 50 foizini tashkil qiladi. TOPIK

imtihonida grammatik qurilmalarning ahamiyati va ularni to‘g‘ri qo‘llash bo‘yicha bir necha koreys olimlari asosli fikr-mulohazalarni bildirganlar. Jumladan, So‘ng Hyang Gin [송향근, 2001:48], Jang Gwang-gun [기영흠, 2011:27], Seohyung Kim, Eunkyung Li, Sawonwon, Kang Eun-ah, Gouri, Eun-kyung Lee, Li Mi-young kabi olimlar TOPIK imtihonida grammatik qoidalar va qurilmalarning dolzarbligi, amal qilinishi zarur bo‘lgan qoidalar, imtihonning lug‘at va grammatika qismlariga oid boshqa ko‘plab masalalar yuzasidan olib borgan nazariy va amaliy tadqiqotlari natijasida bir qator muhim xulosalarga kelib, asosli takliflarni ilgari surdilar.

TOPIK matnlarida taxmin ma’nosini ifodalovchi grammatik vositalar, odatda, kelajakda yoki hozirgi paytda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan voqealar yoki holatlar haqida taxmin qilishni, ehtimollikni bildiradi. Koreys tilida taxmin ma’nosi ko‘pincha quyidagi grammatik vositalar yordamida ifodalanadi:

-*ㄹ/을 것이다*

Bu qo‘shimcha kelajakdagi voqealarni taxmin qilishda yoki hozirgi paytda bo‘lib o‘tishi mumkin bo‘lgan voqealarni ehtimoliy ravishda ifodalashda ishlatiladi:

내일 비가 올 것이다— *Ertaga yomg‘ir yog‘ishi mumkin.*

그 사람은 지금 집에 있을 것이다 — *O‘sha odam hozirda uyda bo‘lishi mumkin.*

-*ㄴ/은/는 모양이다*

Bu grammatik vosita hozirgi holatga asoslangan taxminni ifodalaydi. Odatda, biror holatni ko‘rib chiqib, unda kuzatilishi mumkin bo‘lgan vaziyatni taxmin qilishda ishlatiladi:

그 사람은 지금 집에 있는 모양이다— *O‘sha odam hozirda uyda bo‘lsa kerak.*

날씨가 추운 모양이다— *Havo sovuq ko‘rinadi (taxminan).*

-*ㄴ/은/는 가 보다*

Bu qo‘shimcha o‘zaro suhbatlarda biror narsani taxmin qilishda ishlatilib, odatda boshqa odamlarning fikrlarini yoki vaziyatni kuzatib chiqib taxmin qilish maqsadida qo‘llaniladi. Ushbu grammatik qurilmani … *ga o'xshaydi* tarzida tarjima qilsak ham bo‘ladi va bu grammatik vosita -*ㄴ/은/는 것 같다* qurilmasi bilan sinonim hisoblanadi.

오늘은 바쁜가 보다— *Bugun band bo‘lishi kerak (taxminan).*

그 사람이 피곤한가 보다 — *U odam charchagan bo‘lishi kerak.*

-*ㄹ/을 텐데*

Bu grammatik vosita, ehtimoliy holatni ifodalashda ishlatiladi va ayni paytda yoki kelajakda bo‘lish ehtimoli mavjud voqealar haqida taxmin qiladi. Bu ko‘pincha shartli jumlalar bilan birga ishlatiladi.

내일 날씨가 좋을 텐데— *Ertaga havo yaxshi bo‘lishi kerak.*

그 사람은 이미 떠났을 텐데— *O'sha odam allaqachon ketgan bo'lishi kerak.*

- ㄴ/은/는 척하다

Ushbu qo'shimcha taxminni yoki gapiruvchining biror voqea-hodisa bo'lishini gumon qilgan holatini bildiradi.

그 사람은 아무 일도 없는 척했다. — *O'sha odam (xuddi)hech narsa bo'lmagandek harakat qildi (taxminan).*

Koreys tilida taxminni ifodalovchi grammatik vositalar asosan voqealar yoki holatlar haqida ehtimoliy fikrlarni bildirishini yuqorida misollar yordamida ko'rib o'tdik. Bu vositalar voqealarning kelajagi yoki hozirgi holatga asoslangan ehtimolligini ko'rsatadi.

TOPIK imtihonida taxmin ma'nosini beruvchi eng keng tarqalgan grammatik qurilma bu ~ -*ㄴ/은/는 것 같다* dir. Maqolada ushbu grammatik qurilmaning ishlatilish o'rnini ko'rib chiqamiz.

정신없이 세 아이를 키우면서 내가 미처 생각하지 못한 것이 있었다. 그것을 깨닫게 된 것은 얼마 전 세 딸을 목욕시키면서였다. 나는 늘 그랬듯이 씻기기 편한 막내부터 씻겨 욕실에서 내보냈고 그 다음에는 둘째를 씻겼다. 그리고 나서 첫째를 씻기려고 하는데 아이가 고개를 푹 숙인 채 앉아서 꼼짝도 하지 않았다. 내가 몇 번이나 좋은 말로 타이르자 그제야 "왜 내가 항상 마지막이야?"라고 울먹이며 말했다. 순간 머리를 한 대 얻어맞은 것 같았다. 어린이집에 보내려고 옷을 입히고 머리를 빗겨 줄 때 항상 "동생들 하고 나서 해 줄게."라고 하며 첫째를 기다리게 했던 나의 모습이 떠올랐다. [제 37 회 한국어 능력시험. TOPIK II. 2 교시 읽기 , 2012:9]

Uch nafar farzandimni parvarish qilish bilan juda band bo'lib, men ilgari hech o'ylamagan bir narsani anglab yetdim.

Buni yaqinda uch qizimni cho'miltirayotib tushundim. Har doimgidek, avval yuvintirish oson bo'lgani uchun kenjamni cho'miltirib, hammomdan chiqarib yubordim, so'ng o'rtanchani yuvintirdim. Keyin esa to'ng'ichimni cho'miltirmoqchi bo'ldim, lekin u boshini egib, joyidan qimirlamay o'tirardi.

Men uni bir necha marta muloyim gaplar bilan ko'ndirishga harakat qilganimdan keyingina, u yig'lagudek bo'lib: ***"Nega men har doim oxirgi bo'lishim kerak?"*** *— deb so'radi.*

O'sha paytda xuddi kimdir boshimga biror narsa bilan qattiq urib yuborgandek bo'ldi. Bolalar bog'chasiga yuborish uchun qizlarimni kiyintirayotganda va sochlarini tarayotganimda ***"Avval singillaringni eplab olay, keyin sening navbating keladi"****, deb to'ng'ichimni doimo kutishga majburlaganim birdan esimga tushdi.*

-ㄴ/은/ 는 것 같다 grammatik qurilmasi asosan fe'llar va sifatlarga qo'shiladi. O'zbek tiliga "...ga o'xshaydi" "...dek bo'lmoq" tarzida tarjima qilinadi. Ushbu qurilma so'zlovchining o'tmishdagi harakati yoki hozirgi holati haqidagi taxminini yoki noaniq xulosasini bildiradi. -*ㄹ/을 것 같다* grammatik qurilmasi ba'zida kelajakdagi voqealarni yoki hozirgi vaziyatni taxmin qilish uchun ishlatilishi mumkin. Taxmin qilish uchun asos bormi yoki yo'qmi, taxminning haqiqatga yaqinlik darajasiga qarab qo'llanadi. -*ㄴ/은/ 는 것 같다* grammatik qurilmasi to'g'ridan- to'g'ri dalillarga asoslanib, aniqroq taxmin qilishni anglatadi. Yuqoridagi TOPIK matnida -*것 같다* grammatik qurilmasi o'xshatish yordamida ta'riflagan ya'ni "*순간 머리를 한 대 얻어맞은 것 같다*" "***kimdir boshimga biror narsa bilan qattiq urib yuborgandek bo'ldi***", "***urganga o'xshar edi***" so'zi orqali matnda so'zlovchining holati o'xshatish bilan tasvirlangan. Matnda taxmin grammatik qurilmasi haqiqatga yaqin bo'lmagan holatda ifodalanmoqda, ya'ni so'zlovchining gapi haqiqatdan uzoqroq. Kim Woon shu holatni quyidagicha ta'riflagan: sifat -ㄴ/은 것 같다 grammatik qurilmasi qo'llanilganda haqiqatdan yiroq bo'lgan taxminni ifodalaydi.

남자: 수미 씨, 왜 회사 동호회에 가입 안 해요? 여자: 저는 따로 활동하는 동호회가 있어요. 그래서 회사 동호회는 가입 안 하려고요. 개인 생활까지 알게 되면 좀 불편할 것 같아서요. 남자: 취미 생활을 같이 하면 회사 사람들이랑 빨리 친해질 수 있어요. 필요할 때 조언도 구할 수 있고요.[제 37 회 한국어 능력시험. TOPIK II. 2 교시 읽기, 2012:10]

Erkak: Sumi, nega kompaniya klubiga qo'shilmaysiz?

Ayol: Boshqa qatnaydigan klubim bor. Shuning uchun kompaniya klubiga qo'shilishni xohlamayman. Odamlar shaxsiy hayotim haqida bilishsa, biroz noqulay bo'ladiganga o'xshaydi.

Erkak: Agar siz sevimli mashg'ulotingizni baham ko'rsangiz, ishdagi odamlar bilan tezda do'st bo'lishingiz mumkin. Shuningdek, sizga kerak bo'lganda maslahat so'rasangiz bo'ladi.

Ushbu matnda -*는 것 같다* grammatik qurilmasi aniqroq taxminni ifodalab kelgan, ya'ni *개인 생활까지 알게 되면 좀 불편할 것 같아서요. Shaxsiy hayotimgacha bilsangiz biroz noqulay bo'lar edi, noqulay bo'ladiganga o'xshaydi*, tarzda qiz yumshoqlik bilan yigitning taklifini rad etmoqda. -*는 것 같다* grammatik qurilmasi nafaqat taxmin balki yumshoqlik ma'nosida ham qo'llaniladi. Ya'ni siz do'stingiz bilan ko'rishmoqchi edingiz va birdaniga rejalaringiz o'zgarib bora olmaysiz, ushbu vaziyatda ham yumshoqlik, ham hijolat bo'lganingizni aynan mana shu grammatik vosita bilan ifodalashingiz maqsadga muvofiqdir. -*는 것 같다* grammatik vositasi o'tgan zamon bilan birga qo'llanilsa aniq bo'lgan taxminni ifodalaydi, agar hozirgi zamon qo'shimchasi bilan ifodalansa noaniq bo'lgan taxminni bildirib keladi. [곽 은 경, 2018:39]

남자: 이건 지금까지 발행된 올림픽 기념우표인가 봐요. 여자: 네. 정말 멋있네요. 올림픽의 역사를 보여 주는 것 같아요. 남자: 사실 기념우표를 왜 발행하는지 잘 이해가 안 됐어요. 그런데 전시회에 와 보니까 의미를 알겠어요. 특히 역사적인 가치가 큰 것 같아요. [제 37 회 한국어 능력시험. TOPIK II. 2 교시 읽기, 2012: 10]

Erkak: Menimcha, bu hozirgacha chiqarilgan esdalik olimpiada markasiga o'xshaydi.

Ayol: Ha. Bu juda ajoyib-a! Bu marka Olimpiya o'yinlari tarixini ko'rsatadi.

Erkak: Rostini aytganda, nega esdalik markalari chiqarilganini tushunmas edim. Lekin ko'rgazmaga kelganimda ma'nosini anglab yetdim. Menimcha, bu juda katta tarixiy ahamiyatga ega.

Matnda -*것 같다* grammatik qurilmasi hozirgi zamon qo'shimchasi -*는* bilan birga kelganini ko'rish mumkin. Ushbu grammatik vosita hozirgi zamon bilan qo'llanganda kelajakdagi yoki hozirda mavjud bo'lgan vaziyatga nisbatan sust taxminni ifodalaydi. Tilshunos olim Kvak In Kyon -*는 것 같다* grammatik qurilmasi aynan hozir paydo bo'lgan vaziyatga nisbatan taxmin ma'nosini bildirishini va ushbu taxmin biror-bir aniq dalillarga asoslanmasligini o'z tadqiqot ishida yoritib o'tgan. [곽 은 경, 2018:41]

TOPIK imtihonida keng qo'llanuvchi grammatik vositalardan biri bu -*ㄹ/을 것이다* dir. U kelajakda bo'ladigan taxminni ifodlab keladi. *–(으) ㄴ/는 것이다* o'tgan, hozirgi zamonlarda ham qo'llaniladi, lekin faqatgina kelajak zamon qo'shimchasi bilan qo'llansagina taxmin ma'nosini beradi. Kvak In Kyong aynan -*ㄹ/을 것이다* ning qo'llanilishiga quyidagicha tarif bergan: "…ushbu grammatik vosita fe'l o'zagiga qo'shilib so'zlovchining kelajakda bajaradigan aniqroq taxminini bildirib keladi, masalan *나는 내일 집에 없을 겁니다 men ertaga uyda bo'lmayman*, bu yerda taxmin ma'nosi kuchli bo'lsa-da, uyda bo'lmasligim foizi yuqoriroq degan ma'noda qo'llanilgan. [곽 은 경, 2018: 30]

도도새는 날지 못해 멸종된 새이다. 도도새는 천적이 없고 먹이가 풍부한 곳에 살았기 때문에 날 필요가 없었고 날려고 하지도 않았다. 그러다 도도 새의 서식지에 인간과 다른 동물들이 유입되었다. 나는 법을 잊어버린 도도새는 도망가지 못해 모두 잡아먹혔고 마침내 이 세상에서 사라져 이처럼 우리도 주어진 환경에 안주하여 노력하지 않으면 결국에는 모든 것을 잃어버리게 될 것이다. [제 37 회 한국어 능력시험. TOPIK II. 2 교시 읽기,2012: 11]

Dodo - ucha olmaydigan yo'qolgan qush turi bo'lib, Dodo qushining tabiiy dushmanlari bo'lmagani va oziq-ovqati mo'l joyda yashagani uchun uchishga hojat qolmagan va uchishga urinmagan. Keyin odamlar va ba'zi hayvonlar dodo qushining yashash joyiga kiritildi. Uchib ketishni unutgan dodo qushi qochib qutula olmadi va hammasi kelgindilarga yem bo'ldi, oxir-oqibat

bu dunyodan g'oyib bo'ldi. Xuddi shunday, agar biz ham berilgan muhit bilan xotirjam bo'lib, harakat qilmasak, oxir-oqibat hamma narsani yo'qotamiz.

Matnda -*ㄹ/을 것이다* grammatik qurilmasi so'z yakunida qo'llanilgan bo'lib, biroz kuchaytirilgan taxmin ma'nosini ifodalamoqda. Dodo qushlari va ularning yashagan sharoiti va yo'q bo'lib ketish sabablari keltirilgan bo'lib, so'zlovchi matn oxirida *우리도 주어진 환경에 노력하지 않으면 모든 것을 잃어버리게 될 것이다.* (Biz ham berilgan imkoniyatlardan foydalanmasak bor narsalarimizni yo'qotishimiz mumkin) tarzida ifodalagan. *잃어버리게 될 것이다* iborasi orqali so'zlovchi kuchliroq taxminni tinglovchi ongiga singdirmoqchi bo'lmoqda, matn -*게 되다* grammatik qurilmasi bilan yakunlansa ham bo'lar edi, ammo unday tugatilganda matndagi shubha ma'nosi yo'qolardi.

Xulosa. TOPIK imtihonida grammatik vositalarning to'g'ri qo'llanilishi nafaqat imtihon natijalariga ijobiy ta'sir qiladi, balki kundalik muloqotda ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada tahlil qilingan taxminni ifodalovchi grammatik qurilmalar – -ㄹ/을 것이다, -ㄴ/은/는 모양이다, -ㄴ/은/는 가 보다, -ㄹ/을 텐데 va -ㄴ/은/는 척하다 – so'zlovchining voqea yoki holatga bo'lgan ehtimoliy munosabatini teranroq ifodalash imkonini beradi. Shuningdek, bu vositalarni puxta o'zlashtirish TOPIK imtihonida yuqori baho olishga va tilni yanada samarali o'rganishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.기영흠(2011), "TOPIK 응시자를 위한 한국어 교재 개발 연구: 중급 어휘·문법 영역을 중심으로", 부산외국어대학교 대학원 석사학위논문. – P.27.

2.김서형, "한국어 문법 교육 연구의 검토", 「문법교육」 3, 한국문법 교육학회.2005. – P.17.

3.곽 은 경. 한국어 추측 표현 교육 방안- 한국어·태국어 대응 관계를 통해 -명지대학교 교육대학원 외국인을 위한 한국어교육학과. 2018. – P.39-45.

4.오소평. 토픽 초급 문법 항목과 토픽 문항의 상관성 연구. 중앙대학교 대학원. 국어국문학과 한국어교육학전공. 2014. – P. 14-20.

5.송 향 근. 중국인 고급 TOPIK 응시자를 위한 문법 교육 방안 연구. 2001. – P.48-55.

6.제 37 회 한국어 능력시험. TOPIK II. 2 교시 읽기. 국립국제교육원. 2012. – P. 9-15.